



Xalq so'zi

O'zbekiston
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 27-yanvar, № 17 (9188)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



DAVLATLAR VA XALQLAR O'RTASIDAGI HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHNING UNIVERSAL VOSITASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-yanvar kuni Toshkentda bo'lib o'tayotgan Osiyo Olimpiya kengashining 46-Bosh assambleyasida ishtirok etdi.



Tadbirda yetakchi xalqaro va mintaqaviy sport tashkilotlari rahbarlari hamda vakillari, jumladan, Milliy olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasining birinchi vitse-prezidenti, Qatar Olimpiya qo'mitasi prezidenti Shayx Jav'an bin Hamad Ol Soniy, Xalqaro antidoping agentligi prezidenti Vitold Banka, Xalqaro gimnastika federatsiyasi prezidenti Morinari Vatanabe, Og'ir atletika federatsiyasi prezidenti

Muhammad Jalud, "World Boxing" prezidenti Gennadiy Golovkin, Chim ustida xokkey federatsiyasi prezidenti Muhammad Tayyab Ikram, Osiyo Paralimpiya qo'mitasi raisi Majid Rashid, Xalqaro sambo federatsiyasi prezidenti Vasiliy Shestakov, Milliy Olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasi bosh kotibi Gunilla Lindberg va Afrika Olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasi prezidenti Mustafa Berraf ham qatnashdi.

Shuningdek, assambleya ishida maxsus mehmonlar va rasmiylar, xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidentining maxsus vakili Paolo Zampolli, Rossiya Federatsiyasi sport vaziri Mixail Degtyarev, Saudiya Arabistoni sport vaziri Shahzoda Abdulaziz bin Turki ol Saud, Qatar yoshlar va sport vaziri Shayx Hamad ol Soniy hamda boshqalar ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida



tobora kuchayib borayotgan global ziddiyatlarga qaramay, sport davlatlar va xalqlar o'rtasidagi muloqot, o'zaro anglashuv hamda hamkorlikni mustahkamlashning universal vositasi sifatida o'rin tutishini alohida ta'kidladi. O'zbekiston Prezidenti Shayx Jav'an bin Hamad Ol Soniy Osiyo Olimpiya kengashi prezidenti etib saylangani bilan qutlab, uning yuksak darajadagi kasbiy mahorati, salmoqli

xalqaro tajribasi va nafaqat Osiyo qit'asi, balki butun dunyoda sport rivojiga qo'shgan ulkan hissasini ta'kidlab o'tdi. O'zbekistonning Osiyo Olimpiya kengashi bilan ko'p qirrali hamkorligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Kengash Ijroiya qo'mitasining 77-sessiyasi muvaffaqiyatli o'tkazilgani, respublikamiz vakili Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha vitse-prezident etib

saylangani va 2029-yilgi Yoshlar Osiyo o'yinlariga mezbonlik qilish uchun O'zbekiston tanlangani qayd etildi. Davlatimiz rahbari Yangi O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida ham so'z yuritdi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OSIYO OLIMPIYA KENGASHINING 46-BOSH ASSAMBLEYASIDAGI NUTQI

Hurmatli do'stlar!
Xonimlar va janoblar!

Bugun dunyoda globallashuv tobora kuchayib, ziddiyatli va tahlikali jarayonlar ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Bunday murakkab vaziyatda davlatlar va xalqlar o'rtasidagi muloqot, o'zaro tushunish va hamkorlikni mustahkamlashda sportning beqiyos o'rni bor.

Tinchlik va do'stlik elchisi bo'lgan sportning butun bashariyatni, jumladan, biz yashayotgan Osiyo qit'asi xalqlarini birlashtirishdagi o'rni va ta'sirini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi.

Osiyo Olimpiya Kengashi qit'amizning 4 milliard 800 milliondan ortiq aholisini birlashtirib, Olimpiya harakatining do'stlik, o'zaro hurmat, adolat va tenglik kabi ezgu g'oyalarni faol targ'ib etmoqda. Sizlar mintaqamizdagi ijobiy o'zgarishlarga ulkan hissa qo'shib, sport diplomatiyasi orqali "Jipslashgan Osiyo" namunasini ko'rsatib bermoqdasi.

Fursatdan foydalanib, bizga yuksak ishonch bildirib, Osiyo Olimpiya Kengashining 46-Bosh assambleyasini mamlakatimizda o'tkazayotgani uchun Kengash rahbariyatiga O'zbekiston Prezidenti va Milliy Olimpiya qo'mitasi

rahbari sifatida alohida minnatdorlik bildiraman.

Bugun mana shunday tarixiy anjumanda Sizlar bilan go'zal va betakror yurtimiz zaminida uchrashib turganimizdan mamnunman.

O'zbekistonga xush kelibsiz!
Hurmatli assambleya ishtirokchilari!
Bugun cizlar qit'amizda o'zaro ishonch, ahilik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilayotgan yirik platforma — Osiyo Olimpiya Kengashining Bosh assambleyasida juda ko'p masalalarni muhokama qildingiz. Shular qatorida aynan o'tayotgani ham, shubhasiz, ulkan tarixiy voqeadir.

Ushbu yuksak lavozimga bir ovozdan saylangan Shayx Jav'an bin Hamad ol Soniy Hazrati Oliylarini samimiy qutlashga ijozat bergaysiz.

O'tgan yili aprelda — bugun yangi saylangan Prezident bilan uchrashuvimiz chog'ida sportni rivojlantirish borasida sarmazmun suhbat qilgan edik. Shayx Jav'an hazratlari Milliy Olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasining birinchi vitse-prezidenti sifatida Qatarda futbol va suv sporti bo'yicha jahon chempionatlari

kabi ko'plab yirik sport tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazgan, katta bilim hamda tajribaga ega shaxs. Bu inson o'zining noyob salohiyati va samarali faoliyati bilan nafaqat Osiyo qit'asi, balki butun dunyoda sport rivojiga ulkan hissa qo'shmoqda. Bugun Osiyo Olimpiya Kengashi mana shunday malakali nomzodni Prezident lavozimiga saylab eng to'g'ri qarorni qabul qildi, deb o'ylayman.

Ishonamanki, Shayx Jav'an hazratlarining bevosita rahbarligida Osiyo Olimpiya Kengashining nufuzi bundan ham yuksaladi.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Biz so'nggi yillarda Osiyo Olimpiya Kengashi bilan ko'p qirrali hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko'tardik. Jumladan, 2022-yilda Osiyo Olimpiya Kengashi Ijroiya qo'mitasining 77-sessiyasini mamlakatimizda muvaffaqiyatli o'tkazdik. Ushbu nufuzli Tashkilot tomonidan O'zbekiston vakili ilk bor Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha vitse-prezident etib saylandi.

2029-yilgi Yoshlar Osiyo o'yinlariga mezbonlik qilish uchun aynan O'zbekiston tanlanganini biz mamlakatimizga mas'uliyatli sport hamkori sifatida berilgan yuksak baho,

deb qabul qilamiz. Bu ishonch esa bizga qo'shni va qardosh bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan sport aloqalarini mustahkamlash uchun puxta zamin yaratmoqda.

Shu o'rinda Osiyo Olimpiya Kengashi Bosh direktori va "World Aquatics" federatsiyasi rahbari Husayn al-Musallam janoblari o'zbek sportining uzoq yillik va ishonchli do'sti ekanini alohida ta'kidlashni istar edim. Bu kishi 1993-yildan buyon yurtimizga muntazam tashrif buyuradi. O'zbekistonga katta mehr qo'yib, mamlakatimizning xalqaro sport bo'yicha tashabbuslarini faol qo'llab-quvvatlab kelmogda.

Janob Husayn al-Musallam nafaqat Osiyoda, balki xalqaro miqyosda o'zining aql-zakovati, qat'iyat va irodasi, barchaga birdek munosabati bilan keng sport jamoatchiligi ishonchini qozongan. Suv sporti barcha turlarining butun dunyoda yangi bosqichga ko'tarilgani bu fikrning yaqqol tasdig'idir. Xususan, Los-Anjeles — 2028 Olimpiya o'yinlarida suv sporti turlari dasturi 49 tadan 55 taga ko'paygani, eng avvalo, rivojlanayotgan davlatlar uchun yangi imkoniyat bo'ldi.

(Davomi 2-betda).

o'xshash an'analar bog'lab turadi.

"O'zbekiston hududida joylashgan Samarqand va Buxoro shaharlari qadimdan islomiy ilm-fanning yirik markazlari bo'lib xizmat qilgan. Buyuk Ipak yo'li esa ikki mintaqani savdo va madaniy aloqalar orqali o'zaro bog'lagan. Ikki davlat o'rtasidagi yana bir muhim tarixiy bog'liqlik shundaki, boburiylar sulolasining asoschisi — Zahiriddin Muhammad Bobur O'zbekiston zaminida dunyoga kelgan", deb ta'kidlaydi ekspert.



«PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEV — POKISTONNING BUYUK DO'STI»

Pokistonning "Associated Press of Pakistan", "Daily Ittehad", "Minute Mirror", "The Daily Big Digit" va boshqa nashrlarida "Prezident Shavkat Mirziyoyev — Pokistonning buyuk do'sti" sarlavhali maqola e'lon qilindi.



ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlari haqida so'z boradi. Muallif yozganidek, ikki mamlakatni mushtarak tarix, madaniyat, din va

Dunyo nigohi

Pokistondagi "Umumiy kelajak jamiyati" tahliiliy markazi ijrochi direktori Xalid Taymur Akram qalamiga mansub ushbu maqolada

Pokiston va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarning ko'p asrlik tarixi va zamonaviy taraqqiyoti, Prezident Shavkat Mirziyoyevning

O'ZBEKISTON BOJXONA SOHASI XODIMLARIGA

Hurmatli bojxona organlari xodimlari!
Qadrli serjant, ofitser va generallar!
Muhtaram faxriylar!

Sizlarni 26-yanvar — O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari xodimlari kuni bilan samimiy tabriklayman.

Mustaqillik yillarida bojxona organlari mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, milliy manfaatlarimizni himoya qilish va chegaralarimiz daxlsizligini asrashda davlatning ishonchli tayanchi bo'lib kelmogda.

Xususan, Yangi O'zbekiston sharoitida bojxona organlari zamonaviy, ochiq va samarali tizimga aylanib, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. Sizlarning bilim va tajribangiz, kasbiy mahorat va qat'iyatingiz mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, sohani raqamlashtirish, ortiqcha byurokratiya hamda inson omilini kamaytirish va xalqaro standartlarni joriy etish borasidagi amaliy ishlaringiz alohida e'tiborga loyiq.

Sohadagi tub islohotlar tufayli keyingi yillarda bojxona rasmiylashtiruv vaqti 40 foizga qisqartirildi, deklaratsiyalarning 20 foizgi inson omilisiz amalga oshirilmoqda. 2025-yilda 76,2 trillion so'm bojxona to'lovlari undirilib, bu ko'rsatkich 21 foizga oshdi va uning Davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi 25 foizga yetdi.

Shuningdek, 1,2 trillion so'mlik tovarlarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yildi. Xavflarni oldindan tahlil qilish natijasida 7 trillion so'm, tovarlarni rasmiy importga jalb etish orqali qo'shimcha 2,3 trillion so'm byudjet mablag'i undirilishi ta'minlandi.

Shu bilan birga 1,8 tonna giyohvandlik, 1,1 tonna psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo'yildi. Jahon savdo tashkiloti talablari asosida bojxona tartib-taomillari soddalashtirildi. Jahon bojxona tashkiloti bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Yangi O'zbekiston bojxonasining xalqaro nufuzi yuksalib bormoqda.

Mamlakatimiz bojxona laboratoriyasi va kinologiya markazining mintaqaviy filial maqomiga ega bo'lishi, Bojxona institutining "PICARD" dasturi standartlari asosida akkreditatsiyadan o'tishi, bojxona idoramizning mazkur tashkilot Audit qo'mitasi a'zoligiga saylanishi ham shundan dalolat beradi. Bojxona tizimida bilimli, tashabbuskor yosh kadrlar safining kengayib borayotgani, ularning malakali xalqaro ekspertlar sifatida e'tirof etilayotgani quvonarlidir.

Qadrli soha vakillari!

Bugungi murakkab zamonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, jumladan, kelgusi besh yilda "yashirin iqtisodiyot" ulushini ikki karra qisqartirishda bojxona organlari faoliyatini kuchaytirish — dolzarb vazifadir. Ayniqsa, mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lib kirish munosabati bilan bojxona tizimining ish samaradorligi va mas'uliyatini tubdan oshirish zarur.

Shu bois sohani har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, xodimlar mehnatini munosib rag'batlantirish doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ushbu shonli ayyomda o'z xizmat burchini ado etish chog'ida halok bo'lgan mard va jasur xodimlar xotirasini hurmat bilan yodga olib, ularning oilalari va farzandlariga ezgu tilaklarimizni yo'llaymiz.

Hurmatli bojxona organlari xodimlari!
Muhtaram faxriylar!

Sizlarni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog'liq, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman. Mas'uliyatli va sharaflı xizmatdaringizda yangi yutuq va zafarlar yor bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti



Uchrashuv

ALOQALAR
RIVOJIGA
QARATILGAN BITIM

Oliy Majlis Senati Raisi, Oʻzbekiston velosport federatsiyasi raisi Tanzila Norboyeva Osiyo velosport konfederatsiyasining yangi saylangan prezidenti Dato Amarjit Singx bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Muloqot davomida Oʻzbekiston velosport federatsiyasi va Osiyo velosport konfederatsiyasi oʻrtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Taʼkidlandiki, mamlakatimizda velosport davlat siyosati darajasida qoʻllab-quvvatlanayotir, zamonaviy infratuzilma yaratilgani bois sportchilarning xalqaro maydondagi natijalari izchil oʻsib bormoqda. Xususan, milliy va paravelosport terma jamoalarining Olimpiya oʻyinlari va jahon musobaqalaridagi ishtiroki mamlakat salohiyatini yuqori darajada namoyon etayotgani aytilib oʻtiladi.

Uchrashuvda tomonlar oʻzaro hamkorlik toʻgʻrisidagi bitimni imzoladi. Uning doirasida Oʻzbekistonda mintaqaviy oʻquv-trening markazini tashkil etish, konfederatsiya taqvimida xalqaro musobaqalarni kengaytirish, mutaxassislar tayyorlash boʻyicha qoʻshma dasturlar ijrosini taʼminlash hamda ayollar va paravelosportni qoʻllab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni faollashtirishga kelishib olindi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

Seminar

FAOLIYAT NATIJADORLIGINI OSHIRISH YOʻLIDA

Avval xabar qilganimizdek, Oliy Majlis Senati tashabbusi bilan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari raislari hamda hokimlar uchun oʻquv seminarlari boʻlib oʻtmoqda.

26 — 28-yanvar kunlaridagi mashgʻulotlarda Jizzax, Navoiy, Samarqand va Sirdaryo viloyatlaridan mahalliy vakillik hamda ijro hokimiyati organlari rahbarlari ishtirok etyapti.

Seminarlar mahalliy davlat boshqaruvi tizimida samaradorlikni oshirish, tuman va shahar darajasida vakillik hamda ijro organlari oʻrtasida oʻzaro hamkorlikni mustahkamlash, aholi muammolarini hal etishda tizimli va ochiq yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva oʻz soʻzida joylardagi rahbarlarning masʼuliyati, qaror qabul qilishda qonuniylilik va jamoatchilik manfaatlarini ustuvor qoʻyish zarurligini qayd etdi.

Oʻquv jarayonida tinglovchilar uchun mahalliy darajada hokimiyatlar boʻlinishi tamoyilini amalga oshirish,

tuman (shahar) Kengashi raisi maqomi va vakolatlari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda dolzarb masalalar hamda ularning yechimlarga bagʻishlangan maʼruzalar va amaliy mashgʻulotlar oʻtkaziladi.

Shuningdek, Kengash faoliyatini rejalashtirish, majlislarni samarali tashkil etish, mansabdor shaxslarning hisobotlarini eshitish amaliyoti, partiya guruhlari va doimiy komissiyalar bilan ishlash, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali ochiq muloqot olib borish usullari muhokama qilindi.

Seminarlarda qaror qabul qilishda qonuniylikka rioya etish,

aholi murojaatlari yuzasidan ishlashda samaradorlik, ochiqlikni taʼminlash, deputatlarning fuqarolar bilan uchrashuvlarini uyushtirish, muammolarni hal qilishda mahallabay ishlash masalalariga alohida eʼtibor qaratiladi.

Bundan tashqari, mahalliy boshqaruvda raqamli texnologiyalardan foydalanish, elektron hukumat tizimlari orqali xizmatlar sifatini oshirish, maʼlumotlar bazalari bilan ishlash va tahliliy yondashuv asosida qaror qabul qilish koʻnikmalarini rivojlantirish ham seminarlarning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Uch kunlik oʻquvlar ishtirokchilarning hududlarda islohotlarni amalga oshirishda amaliy bilim va tajribalarini boyitib, aholi manfaatlariga xizmat qiladigan samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish salohiyatini oshiradi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

“Oʻzbekiston – Kanada” birinchi parlamentlararo forumi mamlakatimizda oʻtkaziladi

Kuni kecha Oliy Majlis Senati Raisining birinchi oʻrinbosari Sodiq Safoyev Kanada Jamoatlar palatasidagi “Kanada — Oʻzbekiston” doʻstlik guruhi raisi Ziyad Abuoltaif bilan videokonferensaloqa shaklida uchrashuv oʻtkazdi.

Onlayn muloqot

Muloqot chogʻida Oʻzbekiston va Kanada oʻrtasidagi parlamentlararo hamkorlikni izchil rivojlantirish va mustahkamlash boʻyicha tomonlar oʻzaro manfaatdorligi qatʼiy taʼkidlandi.

Oʻzbekiston Oliy Majlisi delegatsiyasining 2025-yil 26-27-noyabr kunlari ushbu mamlakatga tashrfi doirasida Kanada parlamentida “Oʻzbekiston kuni”ning muvaffaqiyatli oʻtkazilgani yuqori baholandi.

Shuningdek, “Oʻzbekiston — Kanada” birinchi

parlamentlararo forumini joriy yilda Samarqand shahrida oʻtkazish masalasi muhokama qilindi. Kanada delegatsiyasining mamlakatimizga tashrfi doirasida savdo-investitsiyaviy hamkorlik, jumladan, muhim minerallar, qishloq xoʻjaligi, toza energetika, taʼlim va innovatsiyalar sohaslarida qoʻshma “Oʻzbekiston —Kanada” biznes forumini oʻtkazish masalasi koʻrib chiqildi.

Uchrashuv yakunida tomonlar ikkala mamlakat oʻrtasidagi parlamentlararo muloqotni rivojlantirish yoʻlida hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga tayyor ekanliklarini taʼkidladi.

“Xalq soʻzi”.

Aks sado

OʻZARO ISHONCH VA XALQARO HUQUQ USTUVORLIGI

Shveysariyaning Davos shahrida boʻlib oʻtgan xalqaro muloqotda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Tinchlik kengashi taʼsischilaridan biri sifatida qatnashishi mamlakatimiz tashqi siyosatining yangi, sifat jihatdan yuqori bosqichga koʻtarilayotganidan dalolat beradi.

Maʼlumki, dunyoda yetakchi va rivojlanayotgan koʻplab mamlakatlar bor. Ammo bu kabi tashabbuslarda faqat cheklangan sondagi — taxminan 30 — 35 ta davlat faol qatnashmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Oʻzbekistonning mazkur jarayonlarda suveren davlat sifatida, xalqaro huquq normalariga toʻliq muvofiq ravishda ishtirok etishi xalqaro ishonchning yaqqol ifodasidir.

Bugungi kunda dunyo turli ziddiyatlar, qurolli toʻqnashuvlar va beqarorliklar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Ayniqsa, Yaqin Sharqdagi vaziyat jahon hamjamiyatini jiddiy tashvishga solayotgani sir emas. Ana shunday murakkab sharoitda Oʻzbekiston oʻzining aniq, prinsipial va



tinchlikparvar pozitsiyasini butun dunyoga namoyon etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aʼzo sektoridagi mojaroga nisbatan Oʻzbekiston pozitsiyasini ochiq va ravshan ifodalab, xalqimiz nomidan tinch aholining taqdiri, qirgʻinbarot

urushlarni toʻxtatish, muammolarni faqat siyosiy va diplomatik yoʻl bilan hal etish zarurligini taʼkidladi. Bu yondashuv Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan rezolyutsiya va kompleks dasturlarga ham toʻliq mos keladi.

Shuningdek, Oʻzbekistonning Afgʻoniston masalasidagi konstruktiv pozitsiyasi, Markaziy Osiyoda ishonch muhitini yaratish boʻyicha tashabbuslari xalqaro maydonda yuqori baholanmoqda. Tinchlik kengashi doirasida ham mamlakatimiz aynan shu tajriba bilan faol ishtirok etadi.

Tinchlik kengashi tashabbusi aynan Oʻzbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari — tinchlik, muloqot, oʻzaro ishonch va xalqaro huquq ustuvorligiga tayanadi.

Ayni paytda Davos forumi doirasida Prezidentimiz tomonidan olib borilgan samarali ikki tomonlama uchrashuvlar ham alohida ahamiyatga ega. Davlat boshliqlari, xalqaro tashkilotlar va yirik

TADBIRKORLAR VA INVESTORLAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

Jahon iqtisodiyotidagi chuqur transformatsiyalar va global savdo qoidalarining oʻzgarishi fonida Oʻzbekiston barqarorlikni hamda yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatini namoyish etmoqda.

Ekspert hajmining 23 foizga oʻsib, 33,4 mlrd. dollarga yetgani, oltin-valyuta zaxiralarning rekord darajada — 60 mlrd. dollardan oshgani, birgina 2025-yilning oʻzida 43,1 mlrd. dollar miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilengani kelgusi rivojlanish uchun mustahkam moliyaviy-iqtisodiy poydevor yaratmoqda.

Yalpi ichki mahsulotda investitsiyalar ulushining 31,9 foizga yetgani xalqaro hamkorlar va investorlar tomonidan koʻrsatilayotgan yuksak ishonch darajasidan dalolat beradi.

Bu yutuqlar mamlakatimizning xalqaro nufuzi mustahkamlanishi bilan hamohang kechmoqda. Yetakchi xalqaro agentliklar tomonidan Oʻzbekistonning suveren kredit reytingi “BB” darajasigacha koʻtarilishi, global texnologik va infratuzilimaviy indekslardagi oʻrningning oʻsishi, texnologik yetuklik indeksi boʻyicha jahonning “TOP — 10”taligiga kirishi iqtisodiyot tuzilmasi va davlat boshqaruvi tizimidagi sifat oʻzgarishlarini aks ettiradi. Investorlar, moliya institutlari va ishbiarmon doralr uchun bunday signallar qarz mablagʻlari tannaxrining pasayishi, qarz yukining kamayishi va investitsiya imkoniyatlarining kengayishi kabi aniq amaliy ahamiyatga ega.

Oʻzbekistonning Tinchlik kengashiga muassis davlat sifatida qoʻshilishini aynan shu nuqtayi nazardan koʻrib chiqish lozim. Biz iqtisodiy erkinlik, tadbirkorlik, shaxsiy tashabbus va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv ustuvorligini izchil himoya qilib kelayotgan OʻzLiDeP fraksiyasi aʼzolari mazkur qarorni mamlakatning ochiqlik va global kun tartibini shakllantirishda

faol ishtirok etishga qaratilgan kursining mantiqiy davomi, deb hisoblaymiz. Tinchlik kengashidagi ishtirok Oʻzbekistonning tashqi iqtisodiy pozitsiyasini kuchaytiradi, yetakchi davlatlar bilan investitsiyaviy va texnologik hamkorlik maydonini kengaytirib, barqaror oʻsish uchun qoʻshimcha kafolatlar yaratadi.

Mamlakatimizning Tinchlik kengashiga aʼzo boʻlishini biz nafaqat diplomatik qadam, balki Yangi Oʻzbekistonning innovatsion oʻsishga, sifatli investitsiyalarni jalb qilishga va yurtimizning jahon iqtisodiyotidagi mavqeiini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy strategiyasining muhim elementi sifatida baholaymiz.

Binobarin, Tinchlik kengashiga muassis davlat sifatida qoʻshilish, bir tomondan, Oʻzbekistonning xalqaro maqomini yanada mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan kapital jalb qilish uchun qoʻshimcha turtki beradi. Bularning barchasi kelajakka intilayotgan mamlakatimiz uchun ulkan iqtisodiy va investitsiyaviy ishtibqollarni ochadi.

Shu tariqa soʻnggi yillarda Oʻzbekistonning tashqi savdo aylanmasi



jadal va barqaror rivojlanmoqda. Bu nafaqat barqaror oʻsishni, balki mamlakatimizning jahon maydonidagi iqtisodiy salmogʻi ortib borayotganini ham ifodalaydi. Bu borada Amerika Qoʻshma Shtatlari bilan savdo hamkorligi kengayib borayotganini alohida taʼkidlash joiz.

Xalqaro tashabbus doirasida Tinchlik kengashining tashkil etilishi iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni chuqurlashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu tuzilma uzoq muddatli tinchlik va barqarorlik shart-sharoitlarini birgalikda shakllantirishga tayyor davlatlarni jipslashtirishga xizmat qiladi. Bu dunyoning yetakchi iqtisodiyotlari uchun Oʻzbekistonning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy hamkorlikni ham rivojlantirishga tayyor boʻlgan strategik sherik sifatidagi rolini mustahkamlashni anglatadi. Mamlakatimizning koʻp tomonlama formatlardagi faol ishtiroki xalqaro investorlarning ishonchini oshirib, ishbiarmonlik obroʻsini mustahkamlashga imkon beradi va kapital jalb qilish uchun qulay muhit yaratadi.

Sanoati rivojlangan dunyo, jumladan, Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo — Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari bilan hamkorlikning kengayishi allaqachon oʻz natijalarini bermoqda.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

IQTISODIY BARQARORLIK –
IJTIMOIY HIMOYA ASOSI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yigʻilishlari boʻlib oʻtdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari koʻrib chiqildi. Muhokamarlar chogʻida masalalarning dolzarbligiga eʼtibor qaratilib, fikr-mulohazalar, takliflar bildirildi.



Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati — Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida dastlab Prezidentimiz raisligida kambagʻallikni qisqartirish va aholi bandligini taʼminlash boʻyicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim boʻlgan asosiy vazifalar yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida ilgari surilgan takliflar haqida soʻz yuritildi.

Deputatlar davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan har bir tashabbus xalqimizning turmush sifatini yaxshilash, mahallalarni obod va farovon hududlarga aylantirish, inson manfaatlarini himoya qilish, ularning daromadlarini oshirishga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etdi.

— Tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash uchun yirik hajmda kreditlar ajratilishi mahallalarda yangi ish oʻrinlari yaratishga kuchli turtki beradi, — dedi **fraksiya aʼzosi Sevara Ubaydullayeva**. — Mamlakatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan barcha tashabbuslarni toʻliq qoʻllab-quvvatlaymiz. Chunki partiyamiz chekka hududlarni rivojlantirish, aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etishni oʻzining ustuvor maqsadlaridan biri deb biladi. Shundan kelib chiqib, belgilangan vazifalarning ijro etilishi ustidan taʼsirchan parlament nazoratini oʻrnatishimiz lozim boʻladi.

Yigʻilishda yarimtayyor zargarlik buyumlarini Oʻzbekiston Respublikasining boʻxona hududidan tashqariga olib chiqish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi atroflicha muhokama qilindi.

Unda qimmatbaho metallardan yasalgan yarimtayyor zargarlik buyumlarini Oʻzbekiston Respublikasi boʻxona hududidan tashqariga olib chiqishda iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asilik darajasi nazorati inspeksiyasining xulosasini olish nazarda tutilmoqda.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasini ikkinchi oʻqishga tayyorlash davomida masʼul qoʻmita tomonidan qator ishlar amalga oshirilgani, jumladan, fraksiya aʼzolari takliflari asosida loyiha matni yanada takomillashtirilganini qayd etdi.

Shuningdek, qonun loyihasining qabul qilinishi mahalliy zargarlik sanoatini rivojlantirish hamda qonuniy faoliyat olib borayotgan mahalliy tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlashga xizmat qilishini eʼtiborga olib, uni qoʻllab-quvvatladi.

“Milliy tiklanishi” demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi paytlarda foydalanilgan transport vositalarini odometr koʻrsatkichini soxtalashtirish holatlari koʻpaydiki, baʼzan bu jiddiy oqibatlariga sabab boʻlmoqda. Chunki avtomobilning yangi egasi mashina haqida notoʻgʻri maʼlumotlarga ega boʻladi va bu qoʻshimcha texnik xizmat koʻrsatish, baʼzi ehtiyoj qismlarining almashtirilishini kechiktiradi. Natijada bu holat mulkdor va yoʻl harakatining boshqa qatnashchilari hayoti, sogʻligʻini xavf ostiga qoʻymoqda.

Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan ushbu qonun loyihasi bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilmoqda. Xususan, avtotransport vositasining bosib oʻtgan masofasini koʻrsatuvchi odometr uskunasi koʻrsatkichlari oʻzgartirilganligi yoki odometr uskunasi almashtirilganligini bila turib, avtotransport vositasini realizatsiya qilishdan oldin xaridorga bu haqda maʼlum qilmaganlik uchun javobgarlik choralari belgilanmoqda.

Yigʻilishda bu boradagi xorijiy tajriba oʻrganilganiga ham eʼtibor qaratilib, ayrim maʼlumotlar keltirildi.

Fraksiya aʼzosi Shahnoza Joldasova ushbu qonun loyihasi birinchi oʻqish jarayonida qizgʻin muhokama qilinib, fraksiya aʼzolari tomonidan qator takliflar ilgari surilgani va ularning ayrimlari eʼtiborga olinib, loyiha yanada takomillashtirilganini maʼlum qildi.

— Ulardan biri — amaliyotda sotuvchi odometr uskunasi koʻrsatkichlari oʻzgartirilgani yoki odometr uskunasi almashtirilganligini bilmasligi mumkinligi inobatga olinib, mazkur moddaning mazmuni “bila turib” soʻzlari bilan toʻldirildi, — dedi deputat.

Muhokamadan soʻng qonun loyihasi qoʻllab-quvvatlandi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida bola huquqlarining kafolatlarini yanada kuchaytirish, tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama etildi. Unda ayrim qonun hujjatlariga bolaning eng ustun manfaatlari tushunchasini kiritish taklif qilindi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning tizimidagi tashkilotlarga esa tazyiq va

zoʻravonlikdan jabrlanuvchilarning hamda ularning voyaga yetmagan bolalarining manfaatlarini koʻzlab sudlarga davlat boʻji toʻlamasdan ariza, shikoyat va daʼvolar taqdim etish, sud majlislarida qatnashish vakolatlarini berish nazarda tutilyapti.

Shuningdek, qonun loyihasida tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlanganlarning maxsus markazlarga joylashtirilganda ularga bir oygacha boʻlgan muddatga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini berish ham aks etmoqda.

Fraksiya aʼzosi Ziyodbek Yunusov ushbu qonun loyihasini birinchi oʻqishda muhokama qilish davomida qator takliflar berilganini va oʻlgan davrda ular asosida loyiha matni yanada takomillashtirilib, maromiga yetkazilganini aytdi.

— Qonun loyihasida aks etayotgan normalar tazyiq va zoʻravonlikdan jabr koʻrgan xotin-qizlar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoyalashning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, — dedi deputat.

Yigʻilishda fraksiya aʼzolari mazkur qonun loyihasining maromiga yetkazilganini eʼtiborga olib, uni qoʻllab-quvvatladi.

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida bola huquqlarining kafolatlarini yanada kuchaytirishga hamda tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Unda milliy qonunchilikka “bolaning eng ustun manfaatlari” tushunchasini kiritish orqali bolalar huquqlarini himoya etish sohasidagi huquqiy asoslarni mustahkamlash maqsad qilingan.

Muhokama jarayonida fraksiya aʼzolari tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlangan shaxslarni maxsus markazlarga bir oy muddatga joylashtirish tartibi, ushbu muddatni uzaytirish asoslari yuzasidan qonun tashabbuskorlarga savollar bilan murojaat etdi. Masʼullar tomonidan maʼlum qilinishicha, belgilangan bir oy mobaynida jabrlanganlarning muammolarini hal etish choralari koʻriladi. Agar ularga uzoq vaqt tibbiy yordam zarur boʻlsa, ushbu muddat belgilangan tartibda uzaytirilishi mumkin.

Fraksiya aʼzosi Anvarxon Temirov farzandlikka olish masalalarida bolaning eng ustun manfaatlarini taʼminlashga oid normalar yuzasidan taklif va mulohazalar bildirirdi.

Qonun tashabbuskorlari farzandlikka olingan bolalarning huquqlari biologik bolalar bilan teng kafolatlanishi, shu bilan birga, ularning kelib chiqishi haqida maʼlumot olish huquqi saqlanib qolishini taʼkidlashdi.

Yigʻilishda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokama etildi.

Fraksiya aʼzolari yuridik shaxslarga tegishli yoki ularga birtikirilgan hududlardagi yashil hududlarni muhofaza qilish, ushbu masalada javobgarlikni belgilash tartibi yuzasidan qator savol va takliflarni ilgari surdi. Xususan, “birtikirilgan hudud” tushunchasiga aniqlik kiritish, tadbirkorlik subyektlariga ortiqcha yuklama tushmasligi masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Muhokama davomida qonun loyihalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan qator taklif va mulohazalar bildirildi. Kun tartibidagi har bir masala yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida dastlab ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish borasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish hamda mazkur yoʻnalishdagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Aytish joizki, unda “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”, “Oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida”gi qonunlarga hamda Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Xususan, daryo oʻzanlarida noruda materiallarni qonunoniy qazib olish, suv resurslarini ifloslantirish, daraxt va butalarni gʻayriqonuniy kesish yoki yoʻq qilish, ifloslantiruvchi moddalarni belgilangan meʼyordan ortiq miqdorda atmosfera havosiga chiqarish, qurilish maydonlarida chang va qum zarrachalarining havoga koʻtarilishini bartaraf etmaslik, shuningdek, yoqish uchun moʻljallanmagan joylarda yoki qurilmalarda yoqilgʻin, moddalar va chiqindilarni yoqish holatlari uchun yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar joriy etilishi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, issiqxonalarda, ishlab chiqarish binolarida yoki yondirish uskunalarida shinalar, bitum, mazut, plyonka, sintetik karton, rezina, jun tolasi va shunga oʻxshash zararli komponentlarni oʻz ichiga olgan chiqindilarni yoqish ham maʼmuriy javobgarlikka sabab boʻladi.

— Qonun loyihasida belgilanayotgan normalar fraksiyamizda qizgʻin muhokama etildi, — dedi **fraksiya aʼzosi Oʻzbek Rahimov**. — Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi, albatta, atrof-muhit muhofazasini kuchaytirishga, huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish hamda inson salomatligiga salbiy taʼsir etuvchi omillarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Savol-javoblardan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

“Xalq soʻzi”.

TARAQQIYOT, FAROVON HAYOT, PORLOQ KELAJAK UCHUN!



MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan royxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qogoz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Zaxmatiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.




Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 01.12 Topshirildi – 01.20

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhif S. Islomov.

1 2 3 4 5 6